

O`quv jarayonida nazariya va amaliyot uyg`unligi

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha Prizedentimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonni imzoladilar. Unga quyidagilar nazarda tutiladi:

oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoiyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

oliy ta'lim muassasalarida o`quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o`quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish.



Institutimizda ham ta'lim sifatini oshirish bo'yicha jadal ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan Institutimizning 2019-yil 30-sentyabrdagi 6-majlis bayonining 12-bandiga asosan ya'ni Institutda talabalarni 5+1 (besh kun institutda va bir kun ishlab chiqarishda) tizimi asosida o`qitishni joriy etish. Shunga muvofiq Institutimizning "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasining 1-kurs talabalari kafedra professor-o`qituvchilari A.Babayev va A.Davirovlar hamrohligida "O`ZELEKTRTARMOQ" Unitar korxonasi 220/110/10 kv Keles podstansiyasida amaliyot darslarini olib borishdi. Talabalar o`zlarini qiziqtirgan savolarini berishdi va ma'sul hodim tomonidan yetarlicha javoblarini olishdi. Ustozlar ham korxonasi ishchilari bilan birgalikda o`zlarini fikrlarini bilddirdilar. Talabalar uchun dars judayam qiziq va ko'tarinki ruhda o`tdi.

" Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari " kafedrasini assistenti Alisher Davirov axboroti. TIQXMMI vatbuot xizmati